

“HAYRAT-UL ABROR” DOSTONIDA TALMEH SAN’ATI**Karshiyeva Xurshida Allaberdi qizi**

TISU talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14719853>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” dostonida tilga olingan tarixiy-diniy shaxslar nomlari va bu orqali talmeh she’riy san’atidan mohirona foydalanib, voqea va rivoyatlarga alohida urg’u berganligi haqida so’z boradi.

Kalit soʻzlar: Alisher Navoiy, “Hayrat-ul abror”, talmeh, Jabroil, Odam, Yusuf, Yunus, Havvo, Iso Masih, Xizr, Abu Jahl, Umar.

THE ART OF TALMEH IN THE EPIC POEM “HAYRAT-UL ABROR”

Abstract. This article discusses the names of historical and religious figures mentioned in Alisher Navoi’s epic poem “Hayrat-ul abror” and how he skillfully used the poetic art of talmeh to emphasize events and narratives.

Keywords: Alisher Navoi, “Hayrat-ul abror”, talmeh, Gabriel, Adam, Joseph, Yunus, Eve, Jesus Christ, Khizr, Abu Jahl, Umar.

ИСКУССТВО ТАЛМЕ В ЭПИЧЕСКОЙ ПОЭМЕ «ХАЙРАТ-УЛ-АБРОР»

Аннотация. В статье рассматриваются имена исторических и религиозных деятелей, упомянутых в эпической поэме Алишера Навои «Хайрат-ул-аброр», и то, как он искусно использовал поэтическое искусство талме для подчеркивания событий и повествований.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Хайрат-ул-аброр», талме, Гавриил, Адам, Иосиф, Иона, Ева, Иисус Христос, Хизр, Абу Джахль, Омар.

Maqsud Shayxzoda bejiz Alisher Navoiyni “Soʻz mulkining sultoni” deya atamagan.

Zotan, hazrat Navoiy oʻzbek adabiyotida eng soʻzamol va teran mushohadali, faylasufona qarashlarga toʻyingan, tasavvufiy qarashlar mohiyatini anglagan zotdir. Qolaversa, adabiyotda mavjud oʻnlab sheʻriy sanʼatlarni mahorat bilan qoʻllay olgan daho hamdir. Din nizomi deya atalgan Alisher Navoiyning “Talmeh” sanʼatidan ustomonlik bilan foydalana olganligini izohlash uchun ortiqcha boʻyoqdor soʻzlar shart emas, axir. Uning buyukligi va odamiyligi Alloh va uning elchisiga boʻlgan cheksiz muhabbati, haqiqiy-boqiy hayotga boʻlgan intilishi oʻz zamonasida bajargan amallarida ham namoyon boʻladi. Shu qatorda insonlarga boʻlgan hurmati, ustozlarni eʼzozlashi va ularga koʻrsatgan hurmat-eʼtibori tahsinga sazovor.

“Talmeh” arabcha soʻzdan olingan boʻlib, “koʻz qirini tashlamoq”, “bir nazar tashlash”, “ishora qilmoq”, degan maʼnolarni bildiradi.

Mumtoz adabiyotda badiiy san'at sifatida u mashhur qissa, maqol, tarixiy va afsonaviy voqea, shaxs, mashhur asar qahramonlari nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham ifodalashdir. Bu badiiy san'at adabiyotimizda keng qo'llanilgan.

Ayniqsa, Navoiy "Hayrat-ul abrор"da Qur'oni Karimda nomlari zikr etilgan yuzlab shaxslarning nomini o'z ijodiy merosida talmeh orqali qo'llaydi.

Talmeh san'atida "shoir qahramon siymosini gavdalandirishda uni o'tmishdagi mashhur adabiy, diniy yoki tarixiy qahramonlar bilan qiyoslaydi, o'xshatadi; goho o'sha o'tmish qahramonlari ism-shariflari aytilmay, ular bilan bog'liq voqealar, ishoralar esga olinishi ham mumkin. Har ikki holda ham talmeh san'ati sodir bo'ladi".

"So'z din etib o'tg'a azimat Xalil,

So'z yukiga xomil o'lub Jabrail".

Ushbu misralar orqali Navoiy bobomiz anglatmoqchi bo'lgan xulosa shuki, Jabroil farishta bo'lib, barcha payg'ambarlar (Muso alayhissalomdan tashqari) u bilan gaplashgan. Muqaddas kitoblarning vahiy bo'lishi ham bevosita Jabroil farishta bilan bog'liq. Shu sabab unga "so'z yukiga xomil bo'ldi" deya ta'rif berilmoqda.

"Bo'ldi sanga Odam sabqatnamo,

Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ato".

Yuqoridagi baytda keltirilgan Odam ismi Qur'oni Karimda bir nechta suralar, xususan, "Hijr", "Sod", "A'rof", "Kahf" va "Baqara" suralarida ham qayd etilgan bo'lib, Alloh Taolo tomonidan ilk yaratilgan inson sifatida talqin etiladi. Demakki, ushbu misrada ham Navoiy ushbu faktga e'tibor qaratadi. Avval Odam yaratilib, so'ng hammaga ota bo'ldi deyiladi.

"Istadi Havvo bila chun ittisol,

Ayladi Havvog'a bu nur intiqol".

Ushbu baytlarda keltirilgan Havvo esa Odam (alayhissalom)ning ayoli. Ikkalasini Iblis-shayton vasvasa qilib taqiqlangan daraxt mevasini yeyishga undaydi. Ular shu meva tufayli jannatdan quviladilar. Baytda ham aynan Havvo momomiz nomi keltirilishi bilan ayni mazvuga ishora keltiriladi.

"Garchiki ul chashma nazardin qochib,

Xizr ko'k uzra qatarotin sochib".

"Ko'rguzibon barq bulutdin daraxsh,

Qatra Xizr chashmasidek ruhbaxsh".

Yuqoridagi ikki baytda Xizr alayhissalom haqida so'z boradi. Xalq orasida Xizr bobo nomi juda mashhur bo'lib, turli xil rivoyat va afsonalar bor.

Shuningdek, Xizr alayhissalom haqidagi qissa Qur'oni Karimning "Kahf" surasida kelgan.

Bu qissani mufassir ulamolarimiz “Musos alayhissalom va solih banda qissasi” deb ataydilar. Chunki Qur’onda Xizr alayhissalom “Xizr alayhissalom” nomi bilan atalmagan, balki “solih banda” deb atalgan. Ana shu oyatlarning tafsirida Imom Buxoriy keltirgan rivoyatda solih bandani “Hazr” deb ataladi, biz “Xizr” deb o’rganib qolganmiz.¹

Ana shundan Xizr alayhissalom borligi, Qur’onda “solih banda” nomi bilan esga olinganligi va sahih hadislarda “Xizr” nomi bilan tanilganliklari, mashhur bo’lganliklari kelib chiqadi. Shuningdek, har ikki baytda ham Xizr chashmasi atamasiga urg’u berilib, unda Xizr alayhissalomning hayot suvini ichib, o’lmaslikka erishgani haqidagi rivoyatga ishora borligidan deya fahmlash mumkin.

“Dalvg’a Yusuf kibi solmay nazar,

Hutda Yunus kibi qilmay maqar”.

Ushbu baytda Qur’oni karimda nomlari keltirilgan ikki payg’ambar tilga olingan.

Birinchisi Yusuf (alayhissalom) bo’lib, u zot to’g’risida Yusuf surasida mufassal bayon qilingan. Keyingi misrada Yunus alayhissalomga to’xtaladi, u zot haqida ham Qur’on suralarida bayon qilinadi. Unga ko’ra ba’zi sabablar bilan baliq qornida yotgan Yunus (alayhissalom) uni yaratgan Ollohga yolvorib, duo qiladi va duosi qabul bo’lib, baliq qornidan qutilib chiqadi.

“Sandalining atri Masixo dami,

Andin o’luk misli Masix odami”.

Iso Masih alayhissalom va onasi Mariyam binti Imron qissasi Qur’oni Karimning turli suralarida keltirilgan. Ularga ko’ra, Iso Masihni onasi iffatini saqlagan holda dunyoga keltiradi va Mariyam surasida kelgan oyatlarga ko’ra yo’rgaklangan chaqaloq tilga kirib onasi va o’zining qanday dunyoga kelgani haqida so’zlaydi. Shundan so’ng Isoni Xudoning o’g’li degan noto’g’ri talqin yuzaga keladi.

Qiyomatda Iso alayhissalomning osmondan tushishi va Dajjolni o’ldirishi haqida ishonchli hadislar rivoyat qilingan. Iso alayhissalom ismlariga Masih sifatining qo’shilishi esa quyidagi baytlarda izohlangan.

“Tirguzub o’lganni kalomi fasix,

O’ziga jonbaxsh laqab deb Masix”.

Navoiy talmeh san’atidan foydalanar ekan, shaxslar vositasida voqealarni mohirona singdira oladi. Mazmun esa bu san’at orqali yanada boyiydi. Aynan tarixiy shaxslarning bir baytda ketma-ket kelishining o’ziyoq ayrim o’rinlarda “talmeh” bilan birga boshqa san’at turlarini ham yaralishiga sabab bo’ladi.

“Kim iki tandin birin et tojvar,

¹ <https://islom.uz/maqola/4511>

Biri Abu Jahl-u birisi Umar”.

Ushbu baytdagi Abu Jahl hamda Umar roziyallohu anhu bilan bog‘liq rivoyatlar “talmeh” vositasida baytda kontrast tushunchalarni ham ifodalaydi. Bir vaqtning o‘zida iymon, teskari qarashlar, yondashuv va tarixiy voqeaning kishi ko‘z oldiga kelishini tezlashtiradi.

“Na’lini gar toji sharaf qildi Arsh,

Qildi Ali na’lig‘a egnini farsh”.

Bu baytda hazrat Ali ulug‘lanmoqda. Arsh – osmon ham Ali na’liga – oyog‘i ostiga egnini to‘shadi. Shoir Muhammad payg‘ambarimizga sadoqat ko‘rsatgan bu zoti muborakni ana shunday hurmat bilan tilga oladi. Dostonning ellik beshinchi bobida ham Ali nomi uchraydi:

“Xatmi nubuvvatqa bo‘lub nuri ayn,

Sham‘i valoyat Ali binni Husayn”.

Bu yerda hazrat Alining o‘g‘illari Husayn nomi ham tilga olingan. Navoiy islom tarixining biliimdoni ekanligi yaqqol seziladi. U qaysiki tarixiy shaxsni misralarida qo‘llar ekan, she‘r mazmunan to‘yinib boraveradi. Ba’zi kez mavhum qoldirilgan mohiyat aynan Qur’onning bir necha o‘rnida ushbu shaxs haqida so‘z borgani yoxud rivoyatlar ko‘p ekanligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nafaqat turkiy til taraqqiyotida muhim shaxs, balki asarlariga o‘zi mukammal bilgan islom ta’limotini tom ma’noda bejirim qilib singdira olgan daho ijodkordir. Shu bois, Navoiy asarlari takror-takror o‘qiladi va har mutolaada boshqacha taassurot qoldiraveradi. Va eng muhimi: kitobxonni o‘ziga rom etsa etadiki, o‘zidan bezdirmaydi. Talmeh san’atida murojaat etilgan insonlar bisyor, “Hayrat-ul abror”ning mohiyatiga mos voqealar esga olingan. Talmeh orqali eslangan, voqealardan saboq chiqarishga chaqirilgani bilan ham tarbiyaviy ahamiyatli, g‘oyaviy jihatdan qimmatli, zamon tanlamas darajada dolzarbdir.

REFERENCES

1. Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур Toshkent: “Tafsir-books”. 2023
2. Пайғамбарлар тарихи “Matbaachi” nashriyoti, 2023. 1-2-3-4-kitoblar.
3. ХАЙРАТ-УЛ АБРОР Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Toshkent. 1989
4. Ashurova H. “Talmeh san’ati”. Golden Brain conference